MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY – QOMUSIY MUTAFAKKIR

Robiya Vaxobjonova Nurillo qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: robiyavaxobjonova@gmail.com +998958325255

Annotatsiya. *Mazkur maqola XX asr milliy uyg‘onish davri mutafakkiri, turkiston jadidlarining rahnamosi, jamoat va din arbobi, pedagog, adib, noshir va mohir publitsist Mahmudxo‘ja Behbudiyning ko‘p qirralik faoliyatini yoritishga bag‘ishlangan. Qomusiy ilmlar sohibi bo‘lgan allomaning ta’lim tizimida, matbuotda, adabiy jarayonlarda, ijtimoiy va siyosiy hayotda ilgari surgan yangi g‘oya va maqsadlari, millat va Vatan ravnaqi yo‘lidagi munosib xizmatlari ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Mahmudxo‘ja Behbudiy, jadidchilar, millat oydinlari, ensiklopedist — qomusiy olim.*

МАХМУДХОДЖА БЕХБУДИЙ – ЭНЦИКЛОПЕДИЧЕСКИЙ МЫСЛИТЕЛЬ

Робия Вахобжонова
Докторант Наманганского государственного университет
E-mail: robiyavaxobjonova@gmail.com

Аннотация: *Эта статя посвящена многосторонней деятелности Махмудхожа Бехбудия, мислителя периода националного возрождения XX века в Туркестане, наставника и лидера джадидов, общественного деятеля, педагога, писателя и мастера публицистики. В стате подробно рассматриваются его идеи в области образования, пресси, литературы, социалних и политических процессов, а также значимий вклад в развитие натсии и Отечества. Внесённие им новие идеи в систему образования, науку, литературу и общественную жизн имеют фундаменталное значение для культурного и социалного прогресса народов Туркестана.*

Ключевие слова: *Махмудхожа Бехбудий, джадиди, мислители натсии, энциклопедист.*

MAHMUDKHODJA BEHBUDIY – ENCYCLOPEDIC THINKER

Robiya Vakhobjonova
Doctoral student of Namangan State University
E-mail: robiyavaxobjonova@gmail.com

***Annotation**: This article is dedicated to the multifaceted activities of Mahmudkhodja Behbudi, a thinker of the national revival period in Turkestan during the late 19th and early 20th centuries, a leader of the Jadid movement, a public figure, educator, writer, and skilled journalist. The article outlines his contributions to the fields of education, press, literature, social and political processes, and his significant service to the development of the nation and the homeland. The new ideas he introduced in the educational system, science, literature, and public life are of fundamental importance for the cultural and social progress of the peoples of Turkestan.*

***Keywords**: Mahmudkhodja Behbudi, Jadids, national thinkers, encyclopedist.*

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkiston zaminida millat ma'rifati, ta'lim-tarbiyasini yuksaltirish va milliy uyg'onish g'oyalarini keng yoyish uchun millat oydinlari — jadidlar tarix sahnasiga chiqdilar. Ularning ma'naviy yetakchisi, yangilanish g'oyalarining yalovbardori Mahmudxo'ja Behbudiy edi. U faqatgina jadidchilik harakati yetakchisi emas, balki turli sohalarda qalam tebratgan, milliy ta'lim tizimini isloh qilgan, matbuotdagi har bir maqolasi orqali jamiyatni uyg'otishga intilgan mutafakkir edi. Behbudiy faoliyati davomida ta'lim, din, siyosat, axloq, iqtisod, tarix, geografiya va san'at kabi sohalarda yozgan maqolalari bilan qomusiy – ensiklopedist olim maqomiga munosib ekanini namoyon etgan.

Ensiklopedist olim — bu ma'lum bir sohada emas, turli fanlar kesishmasida ilmiy fikr bildirib, nafaqat bir millat balki, umumjahon e'tirof etgan ma'naviy — madaniy qadriyatlar sohibi bo'lgan, ilg'or fikrlari va amaliy faoliyati bilan jamiyat rivojiga hissa qo'shadigan ziyoli insondir. Behbudiyning ijodiy merosi va jadidchilik harakatlari aynan mana shu tushunchaga to'la mos keladi. Uning maqolalarida ilmiy tahlil, tanqidiy yondashuv va amaliyotga mos fikrlar mujassam bo'lib, har bir asari orqali millat ruhiyatini uyg'otish, jamiyatni taraqqiy toptirish yo'lida xizmat qilganini ko'rish mumkin.

Behbudiy — ta'lim islohotchisi

Mahmudxo'ja Behbudiy har qanday buyuk inqiloblar ta'lim tizimini isloh qilishdan boshlanishini juda to'g'ri anglagan. Shuning uchun ham "Maorif yo'q joyda millat qorong'ulikda qolur. Millatning jonlanishi — ilm va ma'rifat bilandur" , deya dastavval ishni ta'lim tizimiga yangiliklarni joriy qilishdan boshladi.

U jadid ta'lim tizimini yaratish va uni ommalashtirishda rahnoma bo'ldi. Uning ta'lim sohasidagi faoliyati nazariy va amaliy jihatdan chuqur asoslangan bo'lib, bu faoliyatni to'rt asosiy yo'nalishda tahlil etish mumkin:

1.Yangi usuldagi(usuli jadid, usuli savtiya) maktablarni joriy etish. Behbudiy an'anaviy maktablardagi ta'lim usuli faqat biryoqlama ya'ni diniy mazmunga asoslanganini tanqid qilib, yangi — usuli jadid maktablarini joriy etish tarafdori

bo‘lgan. Uning fikricha, eski maktablardagi ko‘r-ko‘rona yodlash metodi zamon talablariga javob bermaydi, o‘qiganlarini chuqur tafakkur qilish, tanqidiy fikrlash, mohiyatni anglashga yo‘naltirilgan ta’lim yangi maktablarning asosiy usuli bo‘lishi kerak. “…Yangi maktab esa aqlni rivojlantirur, savol berish va fikr yuritishga o‘rgatur” , deya ta’limdagi yangi islohotlardan katta umidlar kutadi.

Shuningdek, u yangi maktablarda fanning turli sohalaridan ta’lim berishni yo‘lga qo‘yadi.

2. Darsliklar va o‘quv dasturlarini yaratish. Behbudiyning tashabbusi bilan Samarqand, Kattaqo‘rg‘on va boshqa shaharlarda usuli jadid maktablari ochilgan bo‘lib, ularda o‘quv dasturlari qayta ishlab chiqilgan, dunyoviy fanlar — hisob, geografiya, tarix, axloq, tabiiy fanlar va turkiy til o‘rgatilgan. Jadid maktablaridagi yangi darsliklarning ilk muallifi ham Behbudiyning o‘zi edi. Uning 1903 — 1910 yillar davomida u o‘zbek va tojik tillarida yozgan “Rahnamoi safar”, “Tarixi islomiya”, “Risolai asbobi savod”, “Risolai jug‘rofiyai umroniy”, “Risolai jug‘rofiyai Rusi”, “Kitobat-ul-atfol”, “Amaliyoti islom” kabi darsliklari jadid maktablari uchun o‘quv qo‘llanmasi vazifasini o‘tagan. Shuningdek, Behbudiy “Oyina” gazetasi sahifalarida odob-axloq, savodxonlik, til madaniyati kabi o‘nlab muhim mavzularda doimiy ravishda maqolalar yozib, ularni o‘quv qo‘llanma sifatida taklif qilgan. U “Axloq darslari” deb atalgan maqolalari orqali bolalarda axloqiy tarbiyani rivojlantirishga uringan. U “Adabli bola — millatning o‘ziga xos tarbiyalangan fidoiysidir. Maktab uni kamolga yetkazmog‘i kerak” , deb hisoblagan.

Behbudiy maktab darsliklari va boshqa o‘quv materiallarini nashr qilish ishlarini tizimlashtirish va davomiyligini ta’minlash maqsadida 1913 yilda “Nashriyoti Behbudiya” xususiy nashriyotini ochdi. O‘quvchilar uchun Kutubxonai Behbudiya” nomli kutubxona va qiroatxonalarni tashkil qildi.

3. O‘qituvchi shaxsiyati va malakasi haqidagi qarashlari.

Behbudiy ta’lim muvaffaqiyatini o‘qituvchining shaxsiyati va kasbiy mahorati bilan bog‘lagan. Uningcha, yaxshi o‘qituvchi — nafaqat bilimli, balki axloqiy jihatdan ham yetuk bo‘lishi lozim. U maxsus maqolalar orqali o‘qituvchilarning ma’naviy tayyorgarligini oshirish zarurligini ko‘p marta ta’kidlagan: “Muallim millat tarbiyachisi, shu bois u jisman va ruhan pok bo‘lmog‘i kerak. Uning har bir so‘zi, harakati bolaga ta’sir qilur” .

4. Ayollar ta’limiga yangicha yondoshuvlari

Behbudiy o‘z davrida ayollarning ta’limga bo‘lgan huquqini qat’iy himoya qilgan. U ayollar jamiyatning faol ishtiroklari bo‘lishi uchun ularni savodli qilish kerak, deb hisoblagan. Bu borada maxsus maqolalar yozgan va Samarqandda qizlar uchun jadid maktabini tashkil etishga harakat qilgan. “Ayollarimiz ko‘chada yurmasa ham, farzand tarbiyalaydilar. Tarbiyali farzand uchun esa, ilmli ona zarur”, deb yozgan edi maqolalarining birida.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim tizimiga oid faoliyati o‘z zamonasi uchun inqilobiy ahamiyatga ega edi. Uning maktab tizimi, o‘quv dasturlari, o‘qituvchi haqidagi qarashlari va ayollar ta’limiga bo‘lgan munosabati, ta’lim sohasida jadidchilik g‘oyalarini amalga tatbiq etishda hal qiluvchi omil bo‘lgan. U ta’limni jamiyatni isloh qilishning asosiy vositasi deb bilgan va bu borada nazariy hamda amaliy ishlar olib borgan.

Behbudiy va matbuot. Behbudiyning ensiklopedist mutafakkir sifatidagi eng samarali faoliyatlaridan biri uning jurnalistik faoliyatidir. U juda mohir va zamonaviy ilmlarni egallagan publitsist edi. Uning tashabbusi bilan 1912 yilda Samarqandda nashr etila boshlagan “Oyina” jurnali o‘z davri uchun noyob nashr bo‘lgan. Gazetada ilm, ta’lim, siyosat, geografiya, tarix, tibbiyot, axloq kabi sohalarga oid maqolalar chop etilgan. Uning maqsadlaridan biri ilmni, yangilikni xalq tilida, tushunarli uslubda keng jamoatchilikka yetkazish bo‘lgan. Shuning uchun ham u “Oyina” jurnali turli fanlar bo‘yicha ommaviy ma’rifiy manbaga aylantirishga harakat qilgan. “Bizda ilm bor, lekin u o‘ziga xos to‘siqlar ichida qamalgan. Unga xalqni yetkazmoq — bizning burchimiz” , deb hisoblagan adib matbuotni ilm tarqatuvchi asosiy vosita deb bilgan. U 1913 yilning aprelidan “Samarqand” gazetasini chiqara boshladi. Atigi 45 ta soni chiqib, moliyaviy yetishmovchilik tufayli yopilgan gazeta, shu qisqa muddatda ko‘plab millatparvar ziyolilarning asosiy g‘oyaviy maydoniga aylandi, xalq nazariga tushib ulgurdi. “Samarqand” gazetasi faoliyati to‘xtatilgach, o‘sha yiliyoq Behbudiy “Oyina” jurnali faoliyatini yo‘lga qo‘ydi va o‘zining ezgu amallarini ana shu jurnalda davom ettirdi.

Behbudiy — birinchi o‘zbek dramaturgi. Millatning ma’naviy taraqqiy etishi uchun Behbudiy nazdida yangi maktab ochish va matbuotning o‘zi yetarli emas edi. Agar jadid mafkurasini daraxtga qiyoslasak, ta’lim uning ildizi, tag zamiri; matbuot uning tanasi; teatr esa mevasi edi. Chunki ildiz va tana mustahkam bo‘lsa, yoki aksincha bo‘lganda meva qanday bo‘lishini teatrgina vizual tasvirlab bera olardi. Shu bois jadidchilar uchun teatr shunchaki ko‘ngilochar vosita emas, jamiyatni isloh qilish, xalqni uyg‘otish va ma’rifat tarqatishning samarali yo‘li bo‘lib ko‘rindi. “Teatr — ko‘z bilan ko‘rib, aql bilan anglaydigan maktabdir” , deb yozgandi Behbudiy. Bu fikr teatrning o‘ziga xos tarbiyaviy qudratiga ishonchning ifodasidir.

Teatr xalq oldida jonli tarzda sodir bo‘ladigan voqelikdir. Behbudiy yaxshi anglardiki, gazeta, kitob har doim ham hammaga yetib bormasligi mumkin, lekin sahna orqali har bir kishiga ta’sir qilish osonroq. Shu bilan birga teatr vositasida ijtimoiy tanqidlarni jamiyatga yumshoqlik bilan yetkazish mumkin edi. Shu bois u jadidchilik g‘oyalari bo‘lgan milliy ongni uyg‘otish, ilm-ma’rifatga chaqirish, eski qarashlardan voz kechishni sahna san’ati —teatr yordamida hal etishga bel bog‘ladi. Ana shunday niyat tufayli 1911 yilda “Padarkush” dramasi dunyo ko‘zini ko‘rdi. O‘ziga to‘q bo‘lishiga qaramay farzandining o‘qib, ta’lim tarbiya olishi uchun mablag‘ sarf

qilmagan ota oxir oqibat johil o‘g‘lining qurboniga aylanadi. Behbudiy “Milliy fojea” deb atagan ushbu drama xalq ko‘ziga oyna tutgandek bo‘ldi. Ya’ni bugun o‘qimagan, mehnat qilmagan bola, yengil hayot qasdida otasini ham tanimaydigan johil, takasaltang va jinoyatchi bo‘lib yetishishi aniqligini ko‘rsatdi. Behbudiy “Padarkush” orqali ilmsizlik, axloqsizlik, eskicha fikrlashda qotib qolish, yangiliklarni to‘g‘ri qabul qilmaslikni tanqid qilar ekan, u bevosita shaxslarni emas, tushuncha va tizimlarni nishonga oladi. Dramaning vizual, audial va emotsional ta’sir kuchidan qo‘rqqan uchinchi taraf uning sahnaga ko‘chishidan xavfsirardi. Ko‘plab muhokama va qarshiliklardan so‘ng “Padarkush” 1914 yilda birinchi marta sahnaga qo‘yildi. Xalq teatr — ibratxonadagi yangicha fikrlovchi qahramonlar, yangi mavzular, xalqona tildagi asarni juda katta qiziqish va ishtiyoq bilan qabul qildi. Keyinchalik drama boshqa sahnalarda ham qayta ijro etildi. Toshkentda qo‘yilganda Abdulla Avloniy boy rolini ijro etgani ham bor gap.

Behbudiyning “Padarkush” dramasi jamiyat hayotiga xuddi qaqroq shudgorga shovullagan suvni qo‘yib yuborishday ta’sir ko‘rsatdi. Undan ilhomlanib boshqa jadid adiblari ham dramatik turga jadal qo‘l ura boshladilar.

Behbudiy — polyglot. Behbudiyning serqirra faoliyatini o‘rganib aytish mumkinki, u poliglot ya’ni ko‘p tilni biluvchi ziyoli bo‘lgan. Xususan u arab, fors tojik, turkiy(o‘zbek), rus va biroz fransuz tilida muloqot qilgan, o‘qigan va yozgan. Manbalarda uning rus, arab va fors tilida yozilgan asarlardan tarjimalar qilgani, ularni tahlil etgani qayd etilgan. Aslini olganda o‘sha davrda juda ko‘pchilik forsiy va turkiy tilni baravar bilgani tarixdan ma’lum. Arab tilini esa odatda madrasa ko‘rgan ilm ahli yaxshi bilgan. Rus tilini o‘rganish asosan jadidlar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, bu tilni ular zamonaviy dunyoga chiqish hamda ilm - fanning so‘nggi yutuqlaridan xabardor bo‘lish vositasi sifatida ko‘rganlar. Bundan tashqari jadidlar usmonli turkchasi hamda tatarchani ham yaxshi tushunganlar. Behbudiy bunga qo‘shimcha ravishda g‘arb tillaridan fransuzchani ham o‘rganish kerak, deb hisoblagan. Qizi Parvina(Surayyo)ga fransuz tilini o‘rgatish uchun o‘qituvchi yollagan. Parvina xonim keyinchalik butun umri davomida fransuz tili muallimasi bo‘lib ishlagan. Behbudiy “Bir millat agar faqat o‘z tili bilan kifoyalansa, u o‘zini dunyodan ajratgan bo‘lur. Ilm va fan darvozasi til bilan ochiladi ”, deb hisoblagan. Shu sababdan u o‘zi tashkil qilgan «Oyina» jurnalining ilk sonida «Ikki emas, to‘rt til lozim» maqolasini e’lon qildi. Unga ko‘ra, turkistonliklar zamon bilan hamnafas bo‘lishi, zamonaviy ilmlardan, fikrlardan bahramand bo‘lish uchun «turkiy, forsiy, arabiy va rusiy» tillarini bilishi, ularda bemalol muloqot qilish darajasiga yetishishi lozimligi ta’kidlanadi. Chunki, turkiy til mahalliy aholi so‘zlashadigan asosiy muloqot tili, forsiy madrasa va badiiy adabiyot tilidir, barcha sha’riy kitoblarni o‘qib tushunish uchun esa arab tilini bilish zarur. Tijorat, sanoat, siyosat va ijtimoiy taraqqiyot uchun albatta rus tilini bilish zarur ekanini Behbudiy juda to‘g‘ri va asosli yoritib bergan. “Rus tilini o‘rganish — nafaqat fan,

balki davlat va savdo ishlarida ham zaruratdir. Lekin bu o‘z tilini unutish hisobiga bo‘lmasin ”, deya xorijiy tilni o‘rganayotganda ona tilining qadrini saqlashni ham uqtirib o‘tgan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, Behbudiy til o‘rganishni nafaqat madaniy ma’rifiy, balki siyosiy masala sifatida ko‘tarib chiqdi va bu vatan manfaati yo‘lida xizmat qilishga qodir ziyolilarni shakllantirishga yo‘l ochadi, deb hisobladi.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z zamonasining ko‘zga ko‘ringan ziyolisi, jadidchilik harakatining ilg‘or vakillaridan biri sifatida jamiyatning deyarli barcha sohalariga daxldor faoliyat olib borgan, zamonaviy tafakkur, milliy uyg‘onish va ma’rifat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan mutafakkirdir. U ta’lim, matbuot, dramaturgiya, tarix, geografiya, din, axloq va ijtimoiy islohotlar yo‘nalishlarida yuzlab maqolalar, risolalar va asarlar yaratib, xalqni uyg‘otish, jamiyatni yangi tamaddunga yetaklash maqsadida faoliyat ko‘rsatgan.

Uning bilimlarni turli fanlar kesishmasida tahlil qilishga intilishi, murakkab ijtimoiy muammolarga ilmiy yondashuv bilan yondashishi va ularni xalq ongiga sodda va ta’sirchan shaklda yetkazishga uringani Behbudiy shaxsiyatini ensiklopedist olim sifatida namoyon etadi. Uning ijodiy va amaliy merosi, ayniqsa mahalliy matbuotdagi jurnalistik faoliyati, teatr va ta’lim sohasidagi islohotparvarlik g‘oyalari bu qarashni yanada mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. — Toshkent: “Sharq”, 2011.
2. Oyina gazetasi (1912–1915 yillar) — arxiv nusxalari.
3. Tarixi islomiya — M.Behbudiy.
4. Rahnamoi safar — M.Behbudiy, sayohat va geografiya haqidagi risola.
5. Qosimov Sh. Q. Mahmudxo‘ja Behbudiy va jadidchilik harakati. — Toshkent: “Fan”, 2000.
6. Avazova S. Behbudiy asarlari tahlili. // “Filologiya masalalari” jurnali, 2021, №3.
7. O‘zbek milliy ensiklopediyasi. — Toshkent: O‘zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. — 4-jild. “Mahmudxo‘ja Behbudiy” moddasi.
8. Hasanov B. O‘zbek matbuot tarixi. — Toshkent: “O‘qituvchi”, 1998.
9. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Tahrir: Yu. Rajabov. — Toshkent: “Sharq”, 2011.
10. Karimov A. Mahmudkhoja Behbudi and the formation of the national identity in Turkestan. // Central Asian Survey, Vol. 32, Issue 2, 2013.
11. Behbudi.uz — Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va merosi haqidagi maxsus elektron portal. https://www.behbudi.uz
12. Milliy matbuot tarixi (O‘zbekiston Milliy axborot agentligi saytidagi arxiv materiallari) — www.uza.uz
13. Ziyo.uz elektron ta’lim platformasi — “Jadidlar merosi” to‘plami. https://www.ziyo.uz